

YOSHLARNI YOD G'OYALARGA IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH MASALASI

Jòraqulov Davron Jumanazarovich

*Surxondaryo viloyati Denov tuman 2-son politexnikumi
yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni yod g'oyalarga immunitetini shakllantirish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim jihatlari va omillari hamda bu borada ta'lim-tarbiyaning o'rni ahamiyatli ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, yot g'oyalar, yoshlar, tahdid, axborot, globallashuv, aqidaparastlik, diniy ekstrimistik, oqimlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования у молодежи иммунитета к чужим идеям, важные аспекты и факторы идеологического иммунитета у молодежи, а также важная роль образования в этом плане.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, чуждые идеи, молодежь, угроза, информация, глобализация, фанатизм, религиозный экстремизм, тенденции.

Abstract: This article discusses the formation of youth immunity to foreign ideas, important aspects and factors of the formation of ideological immunity in youth, and the important role of education in this regard.

Keywords: ideological immunity, foreign ideas, youth, threat, information, globalization, fanaticism, religious extremist, trends.

KIRISH

Yovuz niyatli kuchlar ko'pchilik yoshlarni o'z ota-onasiga, vataniga qarshi chiqishga da'vat etib, o'zlarining manfur niyatlarini amalga oshirishga harakat qilib kelmoqdalar. Mana shunday keskin va tahlikali vaziyatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik hushyorlik va ogohlikni yanada kuchaytirishi davr talabidir. So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar mehnat migrantlariga ta'sir o'tkazish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron shaklda tarqatish, internet tarmog'ida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yashirin hujralar tashkil etish kabi yo'llar bilan o'z faoliyatini olib bormoqda.

MUHOKAMA

Hozirda internet tarmog'ida buzuvchi, zo'ravonlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qiluvchi saytlar mavjud. Bunday kutilmagan va murakkab axborot hujumlari va tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish juda muhimdir. Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirmasdan, din niqobidagi tahdidlarga qarshi turish qiyin. Ayni

paytda yoshlarning diniy ekstrimistik oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida ta'lim muassasalari va mahallalarda tizimli ma'rifiy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kundan-kunga kuchayib borayotgani, hozirgi murakkab va tahlikali davrda oldimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni esa turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik xissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi uning ravnaqi, va tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishdek dolzarb bo'lgan vazifa turibdi. Ayni vaqtda, ta'lim muassasalarida kundalik darslardan tashqari mashg'ulotlar mazmun-mohiyatini yanada takomillashtirish, g'oyaviy kurash muammolari masalasini yanada chuqur ilmiy jihatdan tahlil qilishni, yoshlarimizning esa mafkuraviy immunitetini amalda shakllantirishni talab etmoqda. Avvalo, immunitet nima ekanligini bilib olsak undan so'ngina mafkuraviy immunitetni shakllantira olamiz. Immunitet (lotincha, immunitas, immunitatus–qutilish; xalos, xoli bo'lish). Organizmning o'zidan irsiy jihatdan yot xususiyatlari farq qiladigan, uning butunligiga va biologik o'ziga xosligiga zarar yetkazadigan mikroorganizmlar (kasallik qo'zg'atuvchilar) zaharli moddalar va bulardan himoyalaniş reaksiyasi. Bu borada ilmiy mafkuraning o'rni alohida ahamiyatga ega. “Mafkura” so'zi arab tilida “fikrlar majmui” manisini ifodalab, muaayyan ijtimoiy guruh, qatlam millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimini anglatadi. Har qanday mafkura esa jamiyatda yangi paydo bo'lgan ijtimoiy siyosiy kuchlarning talab va extiyojlarini, «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g'oyaviy tizim sifatida vujudga kelib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga olishini ko'rishimiz mumkin. Muaayyan g'oyani insonlar ongiga va ularning ruhiyatiga singdirish; Aholinjing turli xil guruhlarini birlashtirish va shu bilan birga ko'zlangan maqsadga erishish uchun odamlarni safarbar etish; Aholini, ayniqsa yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish; hamda boshqa mafkuraviy va g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilish va shu kabilar. Mafkuraviy immunitet –shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy nazariy qarashlar va qadryatlar tizimi. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosiy e'tiborni maktablarga qaratmog'imiz lozimdir. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim vazifalaridan biri, o'quvchilarning dunyoviy, ilmiy, dunyoqarshini shakllantirishdir. O'quvchilar uning asosida tarixiy taraqqiyotning rivojlanish yo'lini turli ijtimoiy hodisalarni mustaqil anglab,

mustaqil munosabat bildiradilar. Shu sababli ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘tish yoshlarni to‘lqinlashtiruvchi zamonavuy hayot savollariga g‘oyaviy nuqtai nazardan ishonarli javob berish zarur. Mafkuraviy imminitet masalasi, hech shubhasiz, OAV faoliyatiga bevosita va bilvosita daxldordir. Zero, aynan OAVdagi materiallar jamoatchilik fikri monitoringini ta‘minlashga xizmat qiladi, unga mafkuraviy va g‘oyaviy jihatdan ta‘sir etadi. Bu borada I. Karimov shunday dedi: “Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma‘naviyatga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyas bo‘lib tuyuladigan kichkina habar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan, ulkan ziyon yetkazishi mumkin”. Shu o‘rinda mafkuraviy tahdidlar ham tobora ortishi bilan ularning tarmoqlari hamshu bilan barobar ortmoqda. Ayni damda eng avjiga chiqqan din niqobidagi mafkuraviy xurujlar buning yaqqol misolidir. Ko‘plab mamlakatlarda ushbu xuruj oqibatlarini xalq orasida qarama-qarshilikni yuzaga keltirib favqulotda vaziyat holatlari joriy qilinmoqda. Bu mafkuraning asosiy maqsadi ham siyosiy ig‘vo bilan maqsadiga yetishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yot mafkuralarning asosiy maqsadi –bu yoshlarni chalg‘itish, millatni parchalash, jamiyatda o‘zaro alangalatish, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni buzub, tuxmat tarqatish, dunyoning turli mintaqalarida harbiy-siyosiy keskinlikni muntazaam qo‘llab quvvatlashdir. Ma‘lumki, radio, «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya televideniye, internet va matbuot tijorat maqsadlarida ham keng ishlatiladi: yot mafkuralar reklamadan soxta diniy qadryatlarni o‘z ehtiyojlarini singdirishga, odamlarda boqimandachilikni psixologiyasi orqali milliy ongni zaiflashtirishga harakat qiladilar” deb ta‘kidlagan edilar. Ayni vaqtga kelib johil mafkurachilar o‘z missiyalarini internet tarmog‘i orqali yosh avlodga ta‘sir qilish va ularga o‘z g‘oyalarini singdirish orqali amalga oshirmoqdalar buning yaqqol misolida, dunyoga mashhur bo‘lgan ekstremistik, terror tashkilot bo‘lgan “al-Qoida”: Mutaxassislarning qayd etishicha, “al-Qoida” terrorchi tashkiloti o‘z targ‘ibotining 99 foizini internet orqali amalga oshiradi. 2011 yilning iyun oyida “al-Qoida” tashkiloti internet orqali terrorchilik amalyotini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalarini o‘z gumashtalariga yetkazishga urungani fosh etildi. Gap shundaki tashkilotga taalluqli bo‘lgan veb-sahifalarning birida foydalanuvchilarga yuklab olisjh uchun qiziqarli jurnal taklif etilgan bo‘lib, uning sahifalaridan oddiy oshxona sharoitida qo‘lbola bo‘mba tayyorlashni o‘rgatuvchi ko‘rsatmalar joy olgan. Shu orqali tashkilot butun dunyoda o‘z a‘zolariga o‘zini o‘zi portlatish amalyotlarining so‘nggi uslublari haqida ma‘lumotlar yetkazib bergan. Shu bilan birga internet tarmog‘i orqali yosh bollarga ham maxsus xudkushlik amalyotini targ‘ib etuvchi multfilmlar ham ishlab tarqatilgan. Bu kabi filimlardan maqsad bolalarga terrorchilar talqinidagi “jihod” harakatlariga nisbatan moyillik uyg‘otish va kelajakda buzg‘inchilar saflarini

ana shunday yoshlar bilan to'ldirish asosiy maqsadlari bo'lgan. Qachonlardir manashu internet tarmog'i axborot olamida dastlab ma'lumotlar matn ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, hozirgi kelib inernetda nafaqat matn, balki fotolavha, videolavha va ovoz uyg'inligidagi malumotlar joylashtirilib ularni elektron manzillariga tezlik bilan yetkazilmoqda. Ushbu qulaylikdan, taassufki, terrorchi shaxslar ham o'z manfur maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanmoqda. Aftidan, bugungi kunga kelib xavfsizlik va barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'lishning o'zigina yetarli emas, balki ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishni takomillashtirish darkordir. Har bir tahdidlarda o'ziga yarasha qarshi ishlovchi omillari bo'lib, biz ularga faqatgina yuksak dunyoqarash va kuchli bilim bilan kurashishimiz mumkin.

XULOSA

Toki o'smirlarimiz buzg'inchi mafkuralarga, ularni targ'ibotiga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lsin, milliy g'oyamizni amalda qo'llashga, himoya qilishga tayyor bo'lsin. Zero, "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek: "Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalsh uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi vaongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд (Е–М. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Давлат илмий нашриёти, Тошкент–2020. –202 б.
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Таҳрир ҳайъати: Х. Султонов ва б. –Т. Ғ. Ғулум. Номидаги НМИУ. 2009, -292 б.
3. Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш омиллари / Республика тарғибот маркази. –Тошкент: "Маънавият", 2025. 21-22 б.
4. И. Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч. –Т.: "Маънавият" 2013, -115 б.
5. Тулепов Айдарбек. Интернетдаги тахдидлардан: химоя ёрдамчи ўқув кўлланма / А. Тулепов. –Тошкент: Movarounnahr, 2015. –38 б.